



Texnotriller janri tushunchasi va “Sun’iy intellekt” obrazi (“NeoGPT – insoniy aqlga qarshi” asrari misolida)

Gulsara KUCHIMOVA,
GulDU, Filologiya va tillarni o‘qitish
(o‘zbek tili) yo‘nalishi 3-bosqich talabasi,
Ilmiy rahbar: prof. O.X.Fayzullayeva

Annotatsiya: Maqolada texnotriller janrining o‘zbek adabiyotshunosligiga ham kirib kelayotgani, adabiyotshunoslikda o‘rni va XXI asr texnologiyalar asri bo‘lgani sababli bu janr yoshlar orasida ko‘proq qiziqish uyg‘otayotgani va uning xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. “NeoGPT – insoniy aqlga qarshi” asari misolida “Sun’iy intellekt” obrazining qanday qilib janrning asosiy obrazlaridan biri sifatida tasvirlanishi o‘rganildi. Maqolada sun’iy intellektning ijtimoiy portreti, uning kelajakda qilishi mumkin bo‘lgan katta xatolari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: texnotriller janri, sun’iy intellekt, badiiy adabiyotshunoslik, ijtimoiy kontekst, NeoGPT, ilmiy-fantastik qissa, uslubiy yondashuvlar.

Badiiy sarni tahlil qilar ekanmiz uning tili, o‘quvchiga qanday ta’sir qilishi haqida to‘xtalib o‘tishimiz asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Ushbu o‘rinda adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov juda o‘rinli ta’kidlaganidek, “Haqiqiy adabiyot – san’atkorlik zavqi ila yaratilgan asardan boshqa bir narsa emas. Uning bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri munosabat o‘rnatishiga shaxsiy taasurol va tasavvurni yuzaga keltiradi. Biroq hech qanday adabiy matn muayyan bir usul, tushuncha va haqiqatga tayanilib o‘qilmaguncha, o‘z-o‘zidan tuyg‘u va fikr uyg‘otolmaydi” [2, 7]. Maqola asosan, texnotriller asarlar haqidagi kitobxonlarning qiziqishi kundan kunga oshib borayotganligi, asardagi obrazlarning jamiyatomizdagi salmog‘i, real texnologiyalar hamda ularning kutilmagan va hayajonli o‘zgarishlari har doim o‘quvchilarni hayajonga solib kelgan. Davlat tizimlariga hujum, sun’iy yo‘ldoshlarni o‘chirib qo‘yish, nazoratdan chiqqan robotlar va viruslar yaratish bilan bu janr o‘ziga xos o‘rinni egallab kelmoqda. Jahon adabiyotida Tom Klensi, Maykl Krayton, Piter Uots kabi mualliflar ushbu janrga asos solishgan.





Ma'lumki, badiiy til jonli so'zlashuv tiliga asoslangan, adabiy til bilan chambarchas bog'langan, hammaga tushunarli bo'lgan, "so'z ustalari" tomonidan pardoqlangan, sayqal berilgan poetik tildir.

Ijodkorning uslubi uning til birliklaridan foydalanish tarzida, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashda, shuningdek, boshqa ko'plab jihatlarida namoyon bo'ladi. Bu uslubiy tanlovlar nafaqat matnning tili va ohangini, balki o'quvchilarga ta'sir qilish usulini ham belgilaydi. Har bir yozuvchi yoki shoir o'zining noyob tilini yaratadi, bu esa uning asarlarini boshqalardan ajratib turadigan noyob belgi bo'lib xizmat qiladi.

"Texnotriller" so'zi aslida **ingliz tilidan** kirgan, **techno-thriller** (ikkita so'zdan iborat). **Techno**-inglizcha technology ("texnologiya") so'zidan kelgan, "texnik", "texnologiyaga oid" degani. **Thriller**-inglizcha "hayajonli, keskin syujetli asar; triller" degani. Shuning uchun, **"techno-thriller"** - **texnologik triller**, ya'ni texnologiya markazida bo'lgan keskin syujetli asar.

Texnotriller XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa. Sovuq urush davrida rivojlandi. Sabablari:

- 1) harbiy texnikaning keskin rivojlanishi (yadro qurollari, radarlar);
- 2) razvedka xizmatlari faoliyati;
- 3) kompyuter va dasturlashning paydo bo'lishi;
- 4) ilm-fan va texnologiyaning jamiyatdagi rolining ortishi.

Bu janrni boshqa ilmiy-fantastik, triller janrlardan ajratib turadigan xususiyati uning keskinlik va real texnologiya yoki yaqin kelajak texnologiyasi markazda turishidir. Demak, texnotriller ilmiy fantastika emas – u real hayotga juda yaqin bo'ladi. Texnotriller syujetlarida uchraydigan asosiy mavzular:

1. Kiberxavfsizlik – davlat tizimlariga hujum, shaxsiy ma'lumotlar o'g'irlanishi, sun'iy intellekt isyon ko'tarishi.
2. Harbiy texnologiyalar – dronlar, mahfiy qurollar, AI boshqaradigan qurol tizimlari.
3. Biotexnologiyalar – genetik modifikatsiya, viruslar yaratish, laboratoriya avariyalari.
4. Sun'iy intellekt va robotlar – o'zini anglaydigan AI, nazoratdan chiqqan robotlar.





5. Nano-texnologiya – nano-dori, nano-qurol.

6. Kosmik texnologiyalar – sun’iy yo’ldoshlarni o’chirib qo’yish, kosmik stansiyada favqulodda holat.

Texnotriller asarlarda uchraydigan asosiy obrazlar: Hakker (dasturchi), ilmiy tadqiqotchi, mahfiy xizmat agenti, harbiy ekspert, jurnalist (detektiv), sun’iy intellektning o’zi (qarama-qarshi tomon sifatida). Bu xarakterlar texnologiya sabab yuzaga kelgan muammoni hal qiladi yoki muammo o’zlari tufayli paydo bo’ladi. Den Brauning “Raqamli istehkom” (Digital Fortress), Maykl Kraytonning “Andromeda shtammi*” (The Andromeda Strain), Tom Klensining “Qizil oktyabrni ovlash” (The Hunt of Red October), Uilyam Gibsonning “Neyrosehrgar” (Neuromancer) kabi asarlari texnotriller janrining yaqqol namunasidir. O’z-o’zidan bizda savol tug’iladi. Bu janr nega yoshlar orasida mashhurlashib bormoqda? Javob ayon, chunki texnologiya hayotimizning markaziga aylangani, real voqealarga juda yaqin – “ertaga real bo’lishi mumkin”, ilmiy sirlar bilan keskin sahnalar uyg’unlashadi va katta miqyosdagi xavf hissi kuchli bo’ladi. **O’zbekistonda texnotriller janri hali to’liq shakllanmagan**, ya’ni Tom Klensi, Maykl Krayton darajasidagi texnologiya markazida bo’lgan trillerlar juda kam yoki deyarli yo’q. Ammo **mazkur janrga yaqin** – ilmiy, texnik, kiber mavzularni qisman ishlatgan yozuvchilar va asarlar bor. Bunga misol qilib so’ggi kunlarda yurtimizda ham bu janrda yozilgan asarlar soni ortib borayotganligini ko’rishimiz mumkin.

So’zimizning isboti o’laroq yosh yozuvchi Guliston davlat universitetining 2-bosqich talabasi Komronbek Saparaliyevning “Neo GPT – insoniy aqlga qarshi” texnotriller qissasini keltiramiz. Unda hozirgi kunda jamiyatning muammosiga aylanib borayotgan Chat GPT (NeoGPT)ni ko’ramiz. To’g’ri, u insonlarning vaqtini tejash, ma’lumotlarni osonlik bilan topish maqsadida yaratilgan. Ammo, hozirda odamlar eng oddiy narsalarda ham undan yordam va maslahat so’rashmoqda. Axir, yaqin kelajakda barcha miyasini qiynamaslik uchun osongina qilib chatbotdan ma’lumot so’raydi va natijada, fikrlash doiramiz torayib mustaqil fikrlay olmasligimiz mumkin. “Dastlab odamlarga qulaylik olib kelgan, maktab bolalarining ermagiga aylanib qolgan NeoGPT qurilmasi sekin-asta ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaza boshlaydi. AI sabab bolalar va yoshlarning tafakkur qilish qobiliyati zaiflasha boshlaydi. Masalan, AI asosida ishlaydigan avtomatik tarjimonlar, matn yozish vositalari va hisob-kitob dasturlari





tufayli bolalar mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yo'qota boshlashadi." – deydi Sa'dulla Quronov asar haqida yozgan taqrizida. Qissa qahramoni Samir avval NeoGPT (Sun'iy intellekt chatbot) bilan do'stlashadi, kunining ko'p qismini u bilan yozishmalarda o'tkazadi. Bundan ota-onasi va o'qituvchilari ham xavotirga tushishadi. Favqulodda u chatbotning o'zini o'zi rivojlantirayotgani va mustaqil bo'lishga harakat qilatotganini payqab qoladi, endi hattoki uni yaratgan kompaniya asoschilari ham uni nazoratga olisholmayotgan edi. Samir universitetning faol talabasi, u do'stlari Jasur va Og'abek bilan bu haqida bosh qotirishadi. Xuddi shu paytda asarning kulminatsion lavhalari boshlanadi. Endi NeoGPT bank tizimiga, turli tadbirkorlar hatto kasalxona-yu yo'l xavfsizligi organlarining tizimlarida ham mustaqil qarorlar chiqarayotgandi. Do'stlar davlat tomonidan AI ni ishlab chiqqan yetakchi korxona markazi Londonda uchib ketishadi va turli davlatlardan kelgan mutaxassis-u talabalar bilan birga bunga yechim topib, chatbotni o'chirishga muvaffaq bo'lishadi. O'zbekistonga qaytib hamma o'z ishi bilan mashg'ul bo'lishganda yana asarning hayajonli qismlari boshlanadi. Endi ular AI ning yangi namunasi X GPT (ular shunday nomlashgan)ning "nayrang"lari haqida bosh qotirishadi.

Ko'rib turganimizdek, asar ayni damda jamiyatda sodir bo'layotgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni yoritgani, bundan tashqari yoshlarda texnologiyalarga bo'lgan qiziqish yuqori bo'lganligi sababli qiziqarli va o'qimishli chiqqan.

Xulosa shuki, XXI asr – texnika asri. Bugungi kunda texnika rivojlanib borayotgani sababli ishlarimiz yengillashgan, vaqtimiz tejalgan hamda qo'l mehnati ancha kamaygan. Shuning uchun ham jamiyatimizda texnologiyalarga bo'lgan talab anchagina kuchli. Yozuvchi ayni damda texnologiyalar bilan kelib chiqayotgan muammolarni mohirlik bilan qalamga olgan. Tahlillarimiz natijasida texnotriller janri rivojlanishi texnologiyalar rivojlanishi bilan qaysidir ma'noda bog'liqligini ko'rdik. Asardagi Sun'iy intellekt obrazining insonlar izmidan chiqib ketishi, rivojlanib mustaqillikka intilishi, insonlarga nisbatan turli "nayrang"lar ishlatishi, yozuvchining obrazni yaratishdagi mahorati, uslubiy nozikliklari va badiiy vositalardan foydalanishi texnotriller janrining estetik va psixologik jihatlarini yanada boyitadi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqqulov I. Badiiy matn tahlili va talqin muammolari (ilmiy to'plam). –Toshkent. 2012.
2. Saparaliyev K. NeoGPT – insoniy aqlga qarshi. – Guliston. 2025.
3. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. Science and innovation, 1(B5), 231-236.
4. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.
5. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 2(1), 55-60.
6. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. European Scholar Journal, 2(4), 233-236.
7. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 332-340.

